

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI MEHNAT INTIZOMIGA O'RGATISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI**Zamira Xodjaeva***Buxoro davlat universiteti**Pedagogik ta'lim fakulteti tyutori**zamirakhodjaeva904@gmail.com**+998902986904*

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni mehnat intizomiga o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni mehnat intizomiga o'rgatishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik mohiyatini aniqlash, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni mehnat intizomiga o'rgatilib ta'lim samaradorligi aniqlanganligi haqida fikr mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich sinf, sinf, mehnat, maqol, o'quvchi, jarayon, so'z, ta'lim.*

Annotatsiya: *V state vyiskazyvaetsya mnenie o vospitatelnoy znachimosti obucheniya uchayixsya trudovoy dissipline v protsesse nachalnogo obucheniya. Opredeleny teoretiko-metodicheskie osnovy obucheniya studentov trudovoy dissipline v nachalnom uchebnom protsesse, opredelyayuyue pedagogicheskuyu suuynost i effektivnost obucheniya studentov trudovoy dissipline v nachalnom uchebnom protsesse.*

Klyuchevye slova: *Nachalnyy klass, klass, proizvedenie, poslovitsa, uchenik, protsess, slovo, obrazovanie.*

Annotation: *The article expresses an opinion on the educational significance of teaching students labor discipline in the process of primary education. Theoretical and methodological foundations of teaching students labor discipline in the initial educational process are determined, which determine the pedagogical essence and effectiveness of teaching students labor discipline in the initial educational process.*

Key words: *Primary class, class, work, proverb, student, process, word, education.*

Respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy yo'nalishlarini rivojlantirishda xalq ta'limi tizimini takomillashtirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi ish faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajagimizning taqdiri hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim bosqichi maktablarida ilm olayotgan o'quvchilarning tarbiyasiga bog'liqdir.

Haqiqatan ham xalq maqollari yordamida o'quvchilarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan baxramand qilish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash istiqloq talabidir. Buning uchun avvalo o'qituvchining o'zi ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Bu uning zimmasiga juda katta ma'suliyat yuklaydi. Demak, bugungi o'qituvchi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, o'tmishdan qolgan

mafkuraviy qarashlar va sarqitlaridan to‘la xalos etish, ta’lim-tarbiya jarayonini jahon rivojlangan ta’lim darajasiga ko‘tarishda faol ishtirok etishi bilan birga o‘quvchilar qalbi va ongida mehnatsevarlikni shakllantirishi muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mehnat tarbiyasi dastlab oilada, bog‘chada keyinchalik xalq maqollari yordamida bilim olayotgan bolalarda shakllanadi. Ta’limning poydevori qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchini mehnatsevarlikka oid dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi. Shuning uchun ham

maqol ibratli so‘zdir. Shunday so‘zki, so‘zga xusn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta’sirchan qiladi. Shuning uchun xam maqol odamlar nutqida xar doim xamrox bo‘ladi. Kimkiuni ko‘p ishlatsa, o‘shaning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar. Maqolda gap ko‘p. ”Maqol” aslida arabcha, ”so‘z” degan ma’noni bildiradi. Uni ”Otalar so‘zi” xam deydilaryu Bunday nomlash maqolni tushunishni osonlashtiradi. Xaqqiqatan xam, u ota-bobolarimizning qadim-qadimlardan ishlatib kelgan so‘zlari. Ko‘plab maqollarda ichki qofiya bo‘ladi. Masalan: ”omon” bilan ”somon”, ”sulton” bilan ”cho‘pon” o‘zaro oxangdosh, ya’ni qofiyadoshdir. Shu jixatdan ular topishmoqlarga o‘hshab ketadilar. Maqol she’riy shaklda xam bo‘lishi mumkin. Masalan: Oltovlon ola bo‘lsa,

Og‘zidagini oldilar.

To‘rtovlon tugal bo‘lsa,

Tepadagini endirar.

Maqolda o‘sha halqning tarihi, urf-udumi, turmush tarzi, fe’l-atvori, ruhiyati butun borlig‘i aks etadi. Shunga ko‘ra, maqollar hilma-xil mavzularda bo‘lishi mumkin. Masalan, do‘stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar yegallash, botirlik, sahovat, adolat va xokazo.

Qunt bilan o‘rgan hunar, hunardan rizqing unar.

Daraxtni yer ko‘kartiradi, Odamni el ko‘kartiradi.

Bugungi ishni ertaga qo‘yma!

Vaqting ketdi-baxting ketdi.

Mehnat, mehnatning tagi rohat.

Oltin o‘tda bilinar, Odam – mehnatda.

Eksang, o‘rasan.

Yurgan-daryo, O‘tirgan-bo‘yro.

Qimirlagan qir oshar.

Qolgan ishga qor yog‘ar.

Ko‘kka boqma, ko‘pga boq.

Tikansiz gul bo‘lmas, Mashaqqatsiz-hunar.

Mehnat baxt keltirar.

Yetti o‘lchab, bir kes.

Mehnat qilgan xor bo‘lmaydi.

Boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirish bilan birga uning shaxs kamolotidagi ahamiyatini rivojlantirish, kichik yoshdagi o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ayniqsa ularda mehnatsevarlikni shakllantirish barkamol avlodni voyaga yetkazishning bosh ob'ekti hisoblanadi. Dono xalqimiz «Oq bo'lmasa bo'lmasin, pok bo'lsin», «Pokliging — sog'liging», «Sog' yuray desang, ozoda bo'l», «Sog'ligim-"- boyligim», «Yaxshi libos tanga oroyish» kabi maqol va matallari bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyat go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni qadrlashga o'rgatib kelishgan.

M.Yusupov, Z.Ibragimova, N.Tilyabovalar ham o'z ilmiy tadqiqot ishlarida boshlang'ich ta'lim mazmuni, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni ertaklar asosida tarbiyalashni va ularda mehnatsevarlikni his tuyg'ularini shakllanish masalalarini hal etishgan.

Bugungi kunda xalq maqollari yordamida o'quvchilarda odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni xurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amho'rlik qilish haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish mehnatsevarlikning asosiy negizini tashkil etadi. Estetik tarbiya shaxsning barkamolligining bir ko'rinishi xisoblanib, tabiat manzaralari, yilning turli fasllarida unda sodir bo'ladigan o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Shahar va qishloqlarning qiyofasi ulardagi noyob binolar, bog'-rog'lar, me'morchilik yodgorliklari, xiyobonlar, maydonlar, favvoralar, xar-hil bezaklar, xatto tozalik, saranjom-sarishtalik bolalarning yuksak didli bo'lishlariga ta'sir etadi. Shu o'rinda ayniqsa, muzeylar, teatr va kinoxonalarning ahamiyatini aloxida ta'kidlamog kerak.

Hozirga davrda o'zbek adabiyotini jaxonga tanitayotgan E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, M.Ali, O'.Xoshimov, N.Normurodov, O.Yoqubov, P.qodirov va yana ko'plab shoir va yozuvchilarning asarlari yoshlarga estetik tarbiyani berishning bebaho xazinasiga aylanmoqda.

Ko'plab olimlar tamonidan o'quv mashg'ulotlari tashkil etish va ularning estetik tarbiya berish mohiyatini ilmiy asoslash amalga oshirilgan.

Mehnat faoliyati bolaning tevarak-atrofidagi muhitini, mehnat intizomiga o'rgatish, real buyumlarni anglab, bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, unga nazariy bilimlarni qo'llanish imkoniyatini yaratib beradi, uning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitishdan iborat..

Jumladan, mehnatning ijtimoiy axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida turi kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi, mehnat aqllari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar kiradi..

Asboblarni ayniqsa kesuvchi asboblarni ortiqcha g'ilofdan saqlagan ma'qul. Har bir g'ilof asbobning ma'lum turiga mo'ljallanib u nomerlanadi. Har bir qatorning o'z gilofi buladi. Navbatchi o'quvchi asboblarni tarkatishni doimo 1-partadan boshlaydi.

Bunda bolalar o'z nomerlariga odatlanib qoladilar. Agarda asbob bo'zilsa uni kim ishdan chiqarganligini o'qituvchi darhol bilib oladi.

Bolalar tartib va tejamkorlikka odatlanadilar. Chizgich burchak sirqo'l va shu kabi boshqa asboblarning nomerlangan bo'lishi nomerlariga ko'ra o'z joyida ma'lum tartibda saqlanishi va tarkatilishi lozim. Muayyadlar tagliklarda saqlanadi har bir zveno o'z idishiga ega buladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari. g'g'J. Xalq ta'limi. 1997. № 4. 4-12 b.
2. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. 1999 yil 8-9 aprel, ilmiy-nazariy seminar.- T.: 1999.- 84 b.
3. Yo'ldoshev J.g'. ta'limimiz istiqloli yo'lida.-T.:Sharq.1996.-224 b.
4. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. - Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- T.:1999.- 212 b.
5. Tolipov.O'. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari.-T.: Fan.-2004.-167 b.
6. Nigora Oxunjonovna Safarova, Maftuna Bobomurod qizi Isoeva Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodini o'rgatishning ahamiyati. Science and education. Scientific journal. 2 fevral. 2023.- 1284 b.
7. Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993.-223b.

INTERNETDAN OLINGAN ADABIYOTLAR

1. Okolelov O.P. Distansionnoe obuchenie: suшnost, didakticheskie osobennosti texnologii. //t/p: // www.lipesk.
2. Mila Novik. Sovremennyye texnologii v obrazovanii (prodoljenie)// Новые znaniya.1999 №4 s 39